



**ZAMONAVIY KLINIK  
LABORATOR TASHXISI  
DOLZARB MUAMMOLARI**  
**xalqaro ilmiy-amaliy  
anjuman**



**27 dekabr 2022 yil**



**O'zbekiston Respublikasi Sog'Liqni saqlash vazirligi**  
[www.ssv.uz](http://www.ssv.uz)

**Toshkent tibbiyot akademiyasi**  
[www.tma.uz](http://www.tma.uz)

8. Babadzhanova Sh.A. Kurbonova Z.Ch. Pathology Of Vascular-Platelet And Coagulation Hemostasis In Coronavirus Infection (Literature Review) // Eurasian Medical Research Periodical. – 2022. - №14. – C. 149-156.

## **COVID-19 DA NAMUNALAR OLİSH VA DIAGNOSTIK TAHLILLAR O'TKAZISH**

**Nuriddinova N.F., Nishonov A.A.**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

Covid-19 infeksiyasi bilan o'tkir respirator infeksiyaning differensiyasini o'tkazishda laborator tahlillar ahamiyati kattadir. Bu jarayonda esa laboratoriyyada namunalarni olish va diagnostik testlarni o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Og'ir o'tkir respirator infeksiyaga chalingan barcha bemorlar uchun differentsiyal diagnostikani tez o'tkazish muhimdur. Bu bizga qaysi turdag'i shaxsiy himoya vositalardan foydalanish va qanday diagnostik va davolash choralarini qo'llashni aniqlashga imkon beradi.

Hujzirga hamroh infeksiya bilan birga kechadigan COVID-19 infeksiyasini tashxislash juda muhim. Biron bir infeksiyaga diagnostik testing musbat chiqishi COVID-19 ga tekshirish zaruriyatini inkor etmaydi. Og'ir o'tkir respirator infeksiyaning barcha holatlarida kasalxonadan tashqaridagi yoki kasalxona ichi patogenlarini, ya'ni bakterial, zamburug'li va virusli patogenlarni aniqlash lozim.

COVID-19 keltirib chiqaradigan infeksiyani laborator diagnostikasi uchun PZR usulidan foydalaniladi. Burun-halqum va dimog' surtmalari laboratoriya tadqiqotlari uchun asosiy namunalardur. Namunalarni olish va ularni tekshirish bioavfsizlik talab va qoidalariiga o'rnatilgan tibbiy hodim tomonidan amalga oshiriladi. Namunlar biologik materiallarni tashish qoidalariiga muvofiq ravishda transportirovka qilinadi. COVID-19ga gumon qilingan hollarda bemorni ajratish, namunalar olish, asosiy terapiyani boshlash muhimdur.

COVID-19ga gumon qilinayotganda rentgenologik belgilarga ega bemorlarga quyi nafas yo'llari kasalliklari klinik tashxisi qo'yish uchun balg'am, traxeya aspirati, bronxoalveolyar lavaj suyuqligi tekshiriladi. Intubatsiya qilingan bemorlarda traxeyadan aspiratni olish mumkin. Bu jarayonda havo-tomchi yo'li orqali yuqtirish profilaktika choralarini ko'rish muhim ahamiyatga ega. Buning afzalliklari - yuqori nafas yo'llaridan olingan namunalar bilan taqqoslanganda, COVID-19, gripp virusi, MERS-CoV va boshqa yangi respirator viruslarni aniqlash imkoniyatini yuqoriroqdir.

Virusni tashish muhit OT-PZR testlari uchun namunalar olish bilan darhol ishlataladi. Bu namuna qurib qolishi va bakteriya va zamburug'larni o'sishini oldini olishi mumkin. Garchi biz namunalarni laboratoriyaiga virusni tashish muhitida imkon qadar tezroq jo'natishimiz lozim bo'lsa, kechikish paytida ularni laboratoriyaiga jo'natishdan avval to'g'ri saqlash muhimdur.

**Xulosa.** Pnevmoniya, sepsisga chalingan be'morlarda o'tkir respirator bakterial, zamburug'li va virusli infektsiyalarni o'z vaqtida diagnostika qilish lozim. COVID-19 kabi pnevmoniyaga olib keluvchi respirator viruslarga gumon

bo'lganda PZR usulida virusni qnialqsh uchun yuqori nafas yo'llaridan namuna olinadi. Quyi nafas yo'llaridan olinadigan namunalar yanada aniqroq natijalar beradi. Shu bilan bigram namunalarni to'g'ri saqlash, laboratoriyaga transportipovka qoidalariga rioya qilish ham muhim ahamiyatga egadir.

#### **Adabiyotlar.**

1. Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч., Муминов О.А. Частота тромбоэмболических осложнений у больных с коронавирусной инфекцией // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2021. №5. – С. 146-149.
2. Бабаджанова Ш.А. Курбонова З.Ч. Коронавирус инфекциясида гемостаз патологиясини лаборатор ташхислаш ва даволаш: услугий тавсиянома. Тошкент, 2022. Б. 14-16.
3. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А., Миразимов Д.Б., Муминов О.А. Характеристика функции тромбоцитов при COVID-19 // Тошкент тиббиёт академияси ахборотномаси. – 2021. -№1. – Б. 34-36.
5. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А., Муминов О.А. Лабораторный мониторинг патологии коагуляционного гемостаза у больных COVID-19 // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2021. №5. – С. 149-151.
6. Курбонова З.Ч., Муминов О.А. Коронавирус инфекцияси клиник хусусиятлари // Назарий ва клиник тиббиёт. – 2022. - №5. – С. 87-89
7. Babadzhanova Sh.A. Inoyatova F.X., Kurbonova Z.Ch. Relationship between MTHFR gene rs1801133 and rs1801131 polymorphisms with disease severity of covid-19 and homocysteine levels in uzbek patients// Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – Vol. 13. – P. 1879-1888.
8. Babadzhanova Sh.A. Kurbonova Z.Ch. Pathology Of Vascular-Platelet And Coagulation Hemostasis In Coronavirus Infection (Literature Review) // Eurasian Medical Research Periodical. – 2022. - №14. – С. 149-156.

### **SURUNKALI JIGAR KASALLIKLARIDA TROMBOTSITLARDAGI O'ZGARISHLAR Nuriddinova N.F. *Toshkent tibbiyot akademiyasi***

Surunkali diffuz jigar kasalliklari zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan hisoblanib, oshqozon-ichak kasalliklari orasida yetakch io'rirlardan birini egallaydi. Butun dunyo bo'ylab surunkali gepatit va jigar sirrozi bilan kasallanish o'sib bormoqda. O'tgan o'nyillar davomida, jigar sirrozi bilan kasallanish barqaror yuqori bo'lib qolmoqda va ixtisoslashtirilgan shifoxonalarda surunkali diffuz jigar kasalliklari bilan kasallanganlar, bemorlar umumiyl sonining 30% ini tashkil etadi. Kasallanish oqibatlari har bir bemorning uzoq vaqt mehnatga layoqatsizligini, nogironlik va o'lim darajasini oshishiga olib keladi [1.]. Jigar sirrozida o'limning asosiy sabablari jigar komasi (40-60%) va oshqozon ichak tizimning yuqori qismlaridan qon ketishi (20-40%) hisoblanadi. Jigar saratoni, interkurent infektsiyalar va gepatorenal sindrom deyarli kam uchraydi. Ushbu